

2021-yil 22-oktabr

Til - millat ruhi



“O`zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida 21 oktabr - O`zbek tili bayrami kuni munosabati bilan “Til - millat ruhi” shiori ostida ma`naviy-ma`rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirda “O`zkimyosanoat” AJ markaziy apparati va tarmoq korxonalarini xodimlari, O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a`zolari hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o`qituvchilari ishtirok etdi.





Tadbir davomida soʻzga chiqqan filologiya fanlari nomzodi, dotsent Nargiza Ahmedova 1989 yilning 21 oktabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash boʻyicha “Davlat tili toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilinib, unga koʻra Oʻzbek tiliga - Davlat tili maqomi berilganligi, “Oʻzbek tili bayrami kunini belgilash toʻgʻrisida” 2020 yil 10 aprelda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasi bilan 21 oktabr sanasi Oʻzbek tili bayrami kuni etib belgilanganligini taʼkidlab oʻtdi.

Shuningdek, tizim korxonalarini tomonidan “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” gʻoyasi asosida mamlakatimizdagi yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlari mazmun-mohiyatini targʻib qilish orqali tizim xodimlarida tashabbuskorlik va daxldorlik hissini kuchaytirish, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonuni ijrosini taʼminlash hamda Oʻzbek tili bayrami kuni bayramini keng nishonlash maqsadida maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar oʻtkazildi.

“Oʻzkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/til-millat-ruhi>